

O'ZBEKISTONDA OPERA JANRINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

Shaxobiddinova Azizaxon Shavkatjon qizi¹

¹ Andijon Davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 22.06.2025

Revised: 23.06.2025

Accepted: 24.06.2025

Maqolada O'zbekistonga opera san'atining kirib kelishi, dastlabki o'zbek operasining namoyondalari, musiqali drammaning rivojlanishi, shuningdek, chet-el mumtoz operalarining ta'siri bayon etilgan.

KALIT SO'ZLAR:

professional, drama,
opera, simfoniya,
sintetik, tasviriy san'at,
raqs, auditoriya, janr,
dekoratsiya, aria,
secco, rechitativ,
orkestor, premiyera

KIRISH. XX asr boshlanishi O'zbekistonda professional musiqa ijodiyotining tug'ilish davri hisoblanadi. Aynan mana shu davrdan boshlab, 1-o'zbek operasi musiqali drammalari, simfoniyalar, vocal musiqalari yetakchi janrlarga aylandi.

Opera (lotincha: "mehnat mahsuli", "asar")-musiqali dramatik san'at janri. Opera qorishma (sintetik) janr bo'lib, o'zida bir nechta san'at turlarini mujassam etadi. Unda drammaturgiya, tasviriy san'at va raqs san'ati shakllari yaxlit sahnaviy jarayonda uzviy bog'lanadi. Ushbu janr katta sahnalarda ijro etilishi va keng auditoriya bilan muloqotda bo'lishligi orqali boshqa janrlardan ajralib turadi.

Operaning vatani Florensiya (Italiya) shahri bo'lib, Jacopo Perining "Dafne" (1598) va "Euridice" (1600) asarlari ilk operalardan hisoblanadi. Demak, dastlabki operalar qarib to'rt yuz yil oldin yaratilgan bo'lib, hozirgi kungacha insonlarga estetik didning shakllanishiga, ma'naviy dunyosining boyishiga yordam berib kelmoqda.

O'zbekistonda opera janri XX asr boshlarida o'zbek musiqali drammasi rivoji asosida, hamda chet el mumtoz musiqasi ta'sirida vujudga keldi. Aynan mana shu davrda Toshkentda 1918-yil Rus opera teatri o'z faoliyatini boshlagan. Keyinchalik, 1929-yil Muhiddin qori Yoqubov tashabbusi bilan o'zbek musiqali teatri ishga tushgan. Dastlab, teatr sahnasida M. Magamayevning "Nargiz", E. Brusilivskiyning "Er Targ'in" operalari ijro etildi. Mazkur O'zbek opera va balet truppasi o'z faoliyatini kompozitorlar S. Vasilenko va

M.Ashrafiy yaratgan “Bo’ron”(1939) operasi bilan boshlagan. Operaning premiyerasi 1939-yil 11-iyunda bo’lib o’tadi. Aynan mana shu opera O’zbekistonning musiqali teatr hayotida katta voqeaga sabab bo’ldi. “Bo’ron” operasi premiyerasidan so’ng musiqiy dramatik teatr o’z nomini O’zbek Davlat opera va balet teatri nomiga o’zgartirdi. Shunday qilib, o’zbek va rus kompazitorlari hamkorligida yaratilgan “Bo’ron” operasi 1-o’zbek operasi nomini oldi. Keyinchalik birin-ketin turli mavzularda yaratilgan operalar paydo bo’la boshladi. A.Naovoiyning poemasi asosida, kompozitorlar G.M.Gliyer va T.Sodiqov yaratgan “Layli va Majnun” operasi ham “Bo’ron” operasi bilan bir qatorda opera san’atining poydevoriga aylandi. Bundan tashqari o’zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan “Farhod va Shirin”, “Tohir va Zuxra” operalari, “Burgutchcha va toychoq”, “Ona bolam deydi, bola onam deydi” musiqali spektakllari, “Olovuddinning sehrli shamchirog’i”, “O’n ikki oy”, “Hayvonlar sulton” musiqali ertak operalari tinglovchilar tomonidan qizg’in qarshi olindi. Shu davrda jahon mumtoz namunalari bo’lgan Z.Bizening “Karmen”(1944), P.Chaykovskiyning “Yevgenin Onegin”(1947) operalari ham o’zbek tilida sahnalashtirildi. Butun dunyo tan olgan ushbu operalardagi dekoratsiyalar, aktyorlik mahorati, voqealarning bir-biriga uyg’unligi insonlarda o’zgacha bir taassurot qoldirdi.

Sulaymon Yudakovning “Maysaraning ishi”(1959) birinchi o’zbek hajviy operasi xalqimiz orasida katta shov-shuvga sabab bo’ldi va jahonga mashhur bo’lgan operalar qatoridan munosib o’rin egalladi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Chunki mazkur operada barcha xususiyatlari, jumladan, ohangdor arialar, “secco”(tez harakatda so’zlash) rechitativlar orkestor sadolari bilan hamohang ravishda sahnadagi jiddiy va hajviy vaziyatlarni mukammal holatda tasvirlangan. Asosiy rollarni Halima Nosirova, Karim Zokirov, Jamol Nizom Xo’javey, Saodat Qobulova, Xusan Ismoilov kabi buyuk san’atkorlar ijro etgan. Ularning ishtiropi esa asar premiyerasini yanada muvaffaqiyatli o’tishiga sabab bo’ldi. “Maysaraning ishi” operasi o’zbek opera san’atiga salmoqli hissa qo’shganligi bilan ahamiyatlidir.

Bundan tashqari o’zbek kompazitorlari tomonidan yaratilgan turli ko’rinish, turli janrdagi ko’plab operalar, xususan;

-Lirk shakldagi - “Xamza”, “Dilorom”, “Shoir qalbi”(M.Ashrafiy), “Xorazim qo’shig’i”(M.Yusupov);

-Tarixiy shakldagi - “Mangulik”(U.Musayev), “Fidoyilik”(S.Boboyev) operalari;

-Zamonaviy shaklda yozilgan – “Sadoqat” shu bilan birgalikda atoqli shaxslarga bag’ishlangan “Zebiniso”(S.Jalil), “Alisher Navoiy”(M.Burhonov), “Sug’d elining qoploni”(I.Akbarov) kabi operalar xalqimiz tomonidan iliq qarshi olindi.

O’zbekistondagi opera san’ati kundan-kun o’zining xususiy tarzini va musiqiy qadriyatlarini rivojlantirib kelayapti. Bugungi kunda Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg’ona viloyatlarida opera teatrлari faoliyat ko’rsatmoqda sababi yurtimizda ushbu san’at turning o’ziga yarasha muhlislari bor.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, opera an'ati O'zbekistonda musiqa va teatr madaniyatining ahamiyatli qismi sifatida o'z o'rnini saqlab kelayapdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Jabborov "Musiqiy drama va komediya janrlari O'zbekiston kompozitorlari ijodiyoti" Toshkent. 2000y.
2. D.Murodova Mustaqillik davri O'zbekiston kompozitorlik ijodiyoti to'g'risida.
3. "O'zbek musiqasi tarixi" Sh.Ayxodjayeva, Ch.Ergasheva, A.Zokirov. Toshkent - 2021y.